

“Kia FIFA Edition – O‘yin sizdan boshlanadi” aksiyasi to‘g‘risida  
**NIZOM**

**1. UMUMIY QOIDALAR**

1. Aksiyaning nomi: “FIFA World Cup 2026™ Edition - O‘yin sizdan boshlanadi”, bundan keyin matn bo‘yicha “Aksiya”.
2. Aksiya rag‘batlantiruvchi lotereya bo‘lib hisoblanmaydi, unda ishtirok etish Ishtirokchilar tomonidan to‘lovni to‘lash bilan bog‘liq emas va tavakkalchilikka asoslanmagan. Ushbu Aksiyaga O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 983, 984-moddalarida belgilangan normalar tatbiq etilmaydi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 15-noyabrdagi 396-son qarori bilan tasdiqlangan Lotereya o‘yinlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomda nazarda tutilgan tartib qo‘llanilmaydi.
3. Aksiyani o‘tkazish tartib-taomili Aksiya ishtirokchilari tomonidan to‘lovlarni kiritish bilan bog‘liq emas, Aksiyaning sovrin jamg‘armasi esa faqat “Roodell” MCHJ (keyingi o‘rinlarda – Tashkilotchi) mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi.
4. Aksiya ishtirokchisi – 18 yoshga to‘lgan, muomalaga layoqatli, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan, ushbu Tartibda ko‘rsatilgan zarur harakatlarni amalga oshirgan jismoniy shaxs (keyingi o‘rinlarda – Ishtirokchi).
5. Aksiyada ishtirok etish majburiy emas va ixtiyoriy xarakterga ega.
6. Aksiya tashkilotchisi: “Roodell” MCHJ. Tashkilotchining manzili: Toshkent shahri, Sergeli tumani, Yangi Sergeli ko‘chasi, 7-uy; STIR: 207 151 159.
7. Aksiya o‘tkaziladigan hudud: O‘zbekiston Respublikasi
8. Aksiya muddati: 2026-yil 1-apreldan 30-iyulgacha.
9. Sovrinlar o‘ynaladigan sanalar: 2026-yil 19 va 26-iyun, 03, 10 va 17-iyul.
10. Sovrinlarni tantanali topshirish sanasi: har bir yutuqli o‘yin o‘tkazilgan kundan keyingi kuni.
11. Tashkilotchi ushbu tartib shartlarida ko‘rsatilgan usulda Aksiya shartlariga o‘zgartirishlar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

**2. AKSIYANING SOVRIN JAMG‘ARMASI**

12. Aksiyaning sovrin jamg‘armasi: O‘zbekiston terma jamoasi tomonidan imzolangan 1 dona asl (original) FIFA Adidas Trionda to‘pi; 130 dona asl (original) FIFA Adidas Trionda to‘plari.
13. Tashkilotchining sovrinlarni topshirish bo‘yicha javobgarligi faqat yuqorida ko‘rsatilgan sovrinlar soni bilan cheklangan.
14. Tashkilotchi Sovrinlar ro‘yxatiga o‘zgartirish kiritish, uni kengaytirish huquqiga ega.

**3. AKSIYA O‘TKAZISH SHARTLARI VA TARTIBI**

15. Aksiya ishtirokchisiga aylanish uchun Aksiya davrida O‘zbekiston Respublikasi hududidagi rasmiy Kia dilerlik markazlaridan xarid qilingan Kia FIFA World Cup 2026™ Edition (Sonet, K5, Sportage) maxsus seriyali avtomobilni xarid qilish lozim. Aksiya ishtirokchisi 18 yoshdan oshgan muomalaga layoqatli shaxs bo‘lishi kerak.
16. Aksiya ishtirokchilari tomonidan barcha shartlarning bajarilishini nazorat qilish “Roodell” MCHJ bosh direktorining buyrug‘iga asosan xodimlar orasidan tuziladigan ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.
17. Aksiya bo‘yicha sovrinlar yutuqli o‘yinini o‘tkazish vaqti va joyi haqidagi ma’lumotlar ushbu Tartibga muvofiq e’lon qilinadi.
18. Sovringa ega oraliq yutuqli o‘yinlar Kia rasmiy dilerlarining Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi

sahifalarida jonli efir shaklida o'tkaziladi.

19. Super sovringa ega yakuniy yutuqli o'yini Instagram ijtimoiy tarmog'idagi @Kia\_\_uzbekistan rasmiy sahifasida o'tkaziladi.

20. Tashkilotchi Aksiya shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi, bunda ushbu Nizom Ishtirokchilar e'tiboriga havola etilganidek, bunday o'zgarishlarni majburiy ravishda e'lon qiladi.

21. Xarid qilingan bitta Kia FIFA World Cup 2026™ Edition avtomobili Ishtirokchiga ishtirokchilar ro'yxatini shakllantirishning tegishli davri doirasida bitta yutuqli o'yinda ishtirok etish huquqini, shuningdek, super sovringa ega yakuniy yutuqli o'yinida ishtirok etish huquqini beradi.

22. Agar bitta jismoniy shaxs Aksiya davrida bittadan ortiq Kia FIFA World Cup 2026™ Edition avtomobilini xarid qilgan bo'lsa, bunday shaxs har bir xaridni tasdiqlash sharti bilan har bir avtomobil uchun alohida ro'yxatdan o'tkazish raqamini oladi.

23. Super sovringa ega yakuniy o'yinida **01.04.2026 yildan 30.07.2026 yilgacha** bo'lgan davrda Kia FIFA World Cup 2026™ Edition maxsus seriyali avtomobilni xarid qilgan barcha xaridorlar ishtirok etadi.

24. Super sovrin g'olibi ushbu Nizom shartlariga mos keladigan barcha ro'yxatdan o'tgan Aksiya ishtirokchilari orasidan tasodifiy sonlar generatoridan foydalangan holda tasodifiy tanlash usuli bilan aniqlanadi.

25. Agar super sovrin g'olibi ilgari oraliq o'yin g'olibi bo'lgan bo'lsa, bu uni yakuniy o'yinda ishtirok etish huquqidan mahrum qilmaydi, agarda Tashkilotchi tomonidan Aksiya boshlanishidan oldin boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa.

26. Sovrinlar pul ekvivalentida to'lanmaydi va g'olibning talabiga ko'ra boshqa mol-mulkka almashtirilmaydi.

27. Har bir Ishtirokchi Aksiya shartlari, Aksiya ishtirokchilari ro'yxati, sovrinlarga ega yutuqli o'yin o'tkaziladigan joy va vaqt haqidagi ma'lumotlar bilan o'zi uchun qulay bo'lgan usulda mustaqil ravishda tanishadi.

#### **4. AKSIYA G'OLIBLARINI ANIQLASH TARTIBI**

28. Sovrinlarga ega yutuqli o'yin faqat aksiya muddati davomida ushbu Nizomda ko'rsatilgan shartlarni bajargan Ishtirokchilar o'rtasida o'tkaziladi.

29. Aksiya ishtirok etish holati barcha ishtirokchilarning ushbu shartlarga roziligi, shuningdek ularning ismlari, familiyalari, fotosuratlari Tashkilotchi tomonidan reklama maqsadlarida, shu jumladan OAVda e'lon qilishda haq to'lamasdan foydalanilishi mumkinligini anglatadi.

30. Aksiya g'oliblari rasmiy dilerlik markazlari tomonidan o'tkaziladigan jonli efirlar doirasida, shuningdek, distribyutorning yakuniy jonli efirida aniqlanadi. G'oliblarni tanlash tegishli ro'yxatlarga kiritilgan Ishtirokchilar orasidan tasodifiy sonlar generatori yordamida amalga oshiriladi. Tanlov jarayoni real vaqt rejimida o'tkaziladi, tomoshabinlar uchun ochiq va shaffof bo'lib, xolislikni ta'minlaydi va o'yin natijalariga aralashish imkoniyatini istisno qiladi.

#### **5. SOVRINLARNI OLISH TARTIBI VA MUDDATLARI**

31. G'oliblar sovrin to'g'risida shaxsan o'yin o'tkazilayotgan paytda xabardor qilinadi.

32. G'oliblarni taqdirlash marosimi Aksiya tashkilotchisi tomonidan Aksiya yakunlangan kundan boshlab 2 ish kunidan kechiktirmay o'tkaziladigan joyi va vaqti haqida e'lon qilinadi.

33. Sovrinni qabul qilib olishda g'olib pasportni yoki vakolatli davlat organi tomonidan berilgan shaxsini tasdiqlovchi boshqa rasmiy hujjatni taqdim etishi shart.

34. G'olib bo'lgan ishtirokchi sovrinni olishda uning olinganligini tasdiqlovchi hujjatga o'z qo'li bilan belgi qo'yadi: to'liq FIO ni ko'rsatadi va o'z imzosini qo'yadi, shuningdek ko'rsatilgan hujjatning boshqa barcha zarur ustunlarini to'ldiradi. Sovrinni olgan paytdan boshlab, g'olib bo'lgan ishtirokchi

ushbu sovrinning tasodifan nobud bo'lishi yoki buzilishi bo'yicha barcha xatarlarni o'z zimmasiga oladi.

## 6. YAKUNIY QOIDALAR

35. Sovrinlar qiymatining pul ekvivalenti to'lab berilmaydi.

36. Aksiya g'olibi Sovrinni olish bilan bog'liq barcha bevosita va bilvosita xarajatlarni o'z zimmasiga oladi.

37. Aksiyada ishtirok etish Ishtirokchilarning ushbu Tartib bilan tanishishi va unga to'liq roziligini anglatadi.

38. Aksiya g'olibi deb topilgan ishtirokchilar avtomat ravishda qo'shimcha roziliksiz Tashkilotchiga va/yoki uning vakolatli vakiliga o'z ismi, familiyasi, otasining ismi, fotosuratini e'lon qilish huquqini, shuningdek, reklama maqsadlarida, shu jumladan radio va televideniye uchun, shuningdek, boshqa axborot tarqatish vositalari uchun Aksiyada ishtirok etish to'g'risida reklama intervyusini olish huquqini, ulardan foydalanish muddati, tarqatish hududi cheklanmagan va qo'shimcha haq to'lanmagan holda har qanday reklama materiallarini tayyorlash uchun foto va video tasvirga olish huquqini beradilar.

39. Tashkilotchi Aksiya ishtirokchilari tomonidan ushbu Tartibda belgilangan, Aksiya sovrinini olish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning noto'g'riligi va o'z vaqtida taqdim etilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

40. Aksiya g'oliblari bo'lgan Aksiya ishtirokchilarining Aksiya tartibini o'z vaqtida o'qib chiqmasligi tegishli Sovrinni olish uchun Tashkilotchiga zarur hujjatlarni taqdim etish talablari va muddatlarini buzish uchun uzrli sabab bo'lmaydi.

41. Tashkilotchi ushbu Tartib qoidalarini buzgan, shu jumladan Aksiya sovrinlarini berish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish muddatlarini buzgan G'oliblarga, shuningdek bunday ma'lumotlarni taqdim etmagan G'oliblarga Aksiya sovrinlarini berishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

42. Aksiyani o'tkazish bilan bog'liq barcha nizolar Tashkilotchi va Ishtirokchi o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Tinch yo'l bilan kelishuvga erishish imkoni bo'lmagan taqdirda, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sudga ko'rib chiqiladi.

43. Ushbu Tartibda nazarda tutilmagan barcha holatlarda Aksiya Tashkilotchisi va Ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

44. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablariga biron-bir tarzda zid bo'lgan taqdirda, ushbu Nizomga nisbatan ustuvor bo'lgan qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

45. Nizom buyruq bilan tasdiqlanadi va amalga kiritiladi.